



SOCIO-LEGAL CHARACTERISTICS OF THE INSTITUTION OF ADOPTION AND ITS IMPORTANCE IN PROTECTING CHILDREN'S RIGHTS

Nasiba Khudayberdievna Begimova

Independent

Researcher at the Academy of Law Enforcement

E-mail: nasibabegimova@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: adoption, guardianship and trusteeship, foster family, family orphanage, social protection, child interests, alternative placement.

Received: 26.01.26

Accepted: 27.01.26

Published: 28.01.26

Abstract: This article studies the forms of alternative placement of children deprived of parental care in the Republic of Uzbekistan, in particular, the theoretical and legal foundations of the institution of adoption. The article analyzes the social and legal characteristics of adoption, the latest legislative developments in the field, and the scientific views of civil scientists. The principle of the primacy of the interests of the child and the socio-psychological significance of adoption are revealed on the basis of documentary sources.

FARZANDLIKKA OLISH INSTITUTINING IJTIMOY-HUQUQIY XUSUSIYATLARI VA BOLA HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDAGI AHAMIYATI

Nasiba Xudayberdievna Begimova

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

E-mail: nasibabegimova@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: farzandlikka olish, vasiylik va homiylik, foster oila, oilaviy bolalar uyi, ijtimoiy himoya, bola manfaatlari, muqobil joylashtirish.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni muqobil joylashtirish shakllari, xususan, farzandlikka olish institutining nazariy-huquqiy asoslari tadqiq etilgan. Maqolada farzandlikka olishning ijtimoiy va huquqiy xususiyatlari, sohadagi so'nggi qonunchilik yangiliklari hamda sivilist olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilinadi. Bola manfaatlarining ustuvorligi tamoyili va farzandlikka olishning

СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ ИНСТИТУТА УСЫНОВЛЕНИЯ И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В ЗАЩИТЕ ПРАВ РЕБЕНКА

Насиба Худайбердиевна Бегимова

Независимый исследователь Академии

правоохранительных органов

E-mail: nasibabegimova@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: усыновление, опека и попечительство, приемная семья, семейный детский дом, социальная защита, интересы ребенка, альтернативное устройство.

Аннотация: В данной статье рассматриваются формы альтернативного устройства детей, лишенных родительской опеки, в Республике Узбекистан, в частности, теоретические и правовые основы института усыновления. В статье анализируются социально-правовые характеристики усыновления, последние законодательные изменения в этой области и научные взгляды гражданских ученых. На основе документальных источников раскрывается принцип приоритета интересов ребенка и социально-психологическое значение усыновления.

Kirish. Bolalar huquqlarini himoya qilish O'zbekiston davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, ular millatning ustuni sifatida e'tirof etiladi.

Konstitutsiyada bolalar huquqlari kafolatlangan bo'lib, unga ko'ra ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majbur [1].

Har bir bola dunyoga kelganidan to voyaga yetguniga qadar ota-onasining qaramog'ida bo'lish, tarbiyasini olish huquqiga ega. Biroq, yuzaga keladigan vaziyatlar bolalarni ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lishiga sabab bo'ladi. Yurtimizda bunday bolalarga g'amxo'rlik qilish davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

"Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga ko'ra, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bola deganda - ota-onalik huquqidan mahrum qilingan yoki cheklangan, bedarak yo'qolgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilgan yoxud muomalaga layoqati cheklangan, bolani tarbiyalashdan yoki uning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bo'yin tovlagan, shu jumladan, uzrsiz sabablarga ko'ra o'z bolasini tug'uruqxona yoki

boshqa davolash muassasasidan, tarbiya, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o'xshash boshqa muassasalardan olishdan bosh tortgan yoxud ota-ona qaramog'i mavjud bo'lmagan boshqa holatlar sababli ota-ona yoki yagona ota (ona) qaramog'idan mahrum bo'lgan bola tushuniladi [2].

Bunday bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish vasiylik va homiylik organlari zimmasiga yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 14 noyabrda PF-185-son Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 27 dekabrda 893-son qarori bilan ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni muqobil joylashtirishning 4 ta shakli belgilangan:

1. Vasiylik va homiylikni belgilash - bolani joylashtirishning eng keng tarqalgan shakli bo'lib, unda yetim va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga ta'minot, tarbiya va ta'lim berish, ularning mulkiy, shaxsiy-nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida amalga oshiriladi.

2. Bolani farzandlikka olish - bolalarni joylashtirishning eng ustuvor shakli hisoblanadi. Bunda nafaqat bolaning manfaatlari, balki farzand asrab oluvchilarning manfaatlari ham samarali ta'minlanadi. Farzandlikka olish bola uchun to'laqonli oilaga ega bo'lish, ularning manfaatlarini himoya qilish maqsadida vujudga keladigan munosabat hisoblanadi.

3. Tutingan (foster) oilaga berish - yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan, shuningdek, zo'ravonlikdan jabr ko'rganligi sababli oilasidan olingan hamda xorijda ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar ijtimoiy maqomidan kelib chiqqan holda tutingan (foster) oilaga tarbiyaga beriladi.

Tutingan (foster) oilada bolalar 18 yoshga to'lishi yoki umumiy o'rta, o'rta maxsus va boshlang'ich professional ta'lim tashkilotlarini bitirguniga qadar tarbiyalanishi mumkin.

4. Bolani oilaga tarbiyaga olish (patronat) – bunda bolalar faqat to'g'ri va yon shajara bo'yicha qarindoshlariga beriladi. Bolani qarindosh-lariga berishda voyaga yetgan mehnatga layoqatli aka va opalariga ustunlik beriladi. Muomalaga layoqatli voyaga yetgan har ikki jinsdagi shaxslar tutingan ota-ona bo'lishlari mumkin.

Bolalarni muqobil joylashtirish shakllari ichida farzandlikka olish instituti eng maqbul va ustuvor hisoblanadi. Chunki, bolalarga oilaviy tarbiyani ta'minlash, bolalar huquq va manfaatlarini qo'riqlash, ularni jismonan va ma'nan barkamol inson sifatida kamol topishiga imkon yaratadi.

Farzandlikka oluvchilar ota-onalik majburiyatlarini beg'araz bajaradilar hamda ularni ruhiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlaydilar. Shu sababli farzandlikka olishda bolalarning huquqiy maqomi va ular manfaatlarini himoya qilishning huquqiy masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. D.Ye.Meyerning ta'kilashicha, farzandlikka olishda - farzandlikka oluvchi va farzandlikka olingan bola o'rtasidagi munosabatlar har qanday hisob-kitobsiz ongsiz sevgiga asoslanadi [3].

D.A. Kobelev farzandlikka olishni "nafaqat ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni joylashtirish shakli va nafaqat huquqiy ahamiyatga ega fakt, balki sud tomonidan bolaning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish uchun qo'llaniladigan usul (majburiy amalga oshirish usuli)" deb tushunadi [4].

N.V. Kuxtova va A.I. Chaychenko farzandni vasiylik oilasida tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda haqli ravishda "farzandlikka olish - bu mahalliy bo'lmagan bolani tarbiyalash va uning rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratish - ta'minlash, tarbiyalash va o'qitish, shuningdek, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish" deb ta'kidlaganlar [5].

Farzandlikka olishda farzandlikka oluvchi ota-ona bolaga nisbatan ota-onasiga qonuniy ravishda yuklangan barcha huquq va majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi.

Bugungi kunda farzandlikka olish bilan bog'liq ayrim jihatlar sivilist olimlar F.M.Otaxodjaev, M.Vosiqova, Z.Esonova, J.Dadaboeva, G.Inomjonova, A.Yu.Azizova, Sh.R.Yuldasheva, N.A.Ashurova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yoritilgan.

O.Zaykova, Z.Alieva, Ye.Buyanov, A.Grishkova A.Kationova, T.Mosienko, G.Vershinina, T.Tkachenko, Yu.Gyurdjan, V.Lixanovlar tomonidan farzandlikka olish instituti, kelib chiqish tarixi, tushunchasi, xususiyatlari, taraflarning huquq va majburiyatlari, bu toifadagi ishlarni sudlarda ko'rilishining o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan.

Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda farzandlikka olish institutini boshqa institutlardan farqi va afzalliklari haqida o'z fikrlari bildirilgan.

Masalan, professor Z.Esonova, farzandlikka olish oila huquqining mustaqil institutlaridan biri ekanligini, uning mazmunida bolalar tarbiyasiga alohida e'tibor yotishini ta'kidlagan [7].

Tadqiqotchi Ye.Konovalova, ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar uchun oilaviy ta'limning barcha turlaridan farzandlikka olish instituti eng samaralisi hisoblanishi, unda bolalar qarindoshlik asosida oiladagilarga eng yaqin sharoitda bo'lishi, nafaqat bolalarning manfaatlari balki farzandlikka oluvchilarning ham manfaatlari ta'minlanadigan institut ekanligini bayon qilgan [8].

Tadqiqotchi olimalarning fikriga qo'shilgan holda farzandlikka olish instituti boshqa institutlardan insonparvarligi, bolaning manfaati birinchi o'rinda turishi, hech qanday moddiy manfaatga asoslanmaganligi bilan ustivorligini bildiradi.

F.Otaxo'jaev "farzandlikka olish - juda qadimiy institut bo'lib, hozirgi zamon huquq tizimida o'z ifodasini topgan, ota-ona vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni oilaga joylashtirishdan iboratdir degan" [9].

Tadqiqotchi F.Otaxo'jaevning mazkur fikriga qo'shilgan holda farzandlikka olish instituti juda qadimiy institut sifatida o'ziga xos tarixiy yo'llarni bosib o'tganligini, o'sha davrda yetim va ota-onasidan mahrum bo'lgan bolalarni haqiqiy oilaviy muhitda yashashi va kamol topishiga xizmat qilganligini, hozirda nafaqat yetim va ota-onasidan mahrum bo'lgan bolalar, balki farzandi bo'lmagan oilalarga bola quvonchini olib kiradigan institut deb ta'riflash ham mumkin.

A.M.Nachaevaning fikricha, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni doimiy joylashtirish shakllari ichida farzandlikka olish instituti alohida o'rin egallaydi, chunki u farzandlikka oluvchi va uning qarindoshlari bilan farzandlikka olingan bola o'rtasida shaxsiy va mulkiy huquqlar hamda majburiyatlarni vujudga keltiradi [10].

Muhokama va natijalar. Farzandlikka olish - bu ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni oilaviy tarbiyalash shakli bo'lib, farzandlikka olingan bola va asrab oluvchi ota-ona o'rtasida ota-onalar va bolalar o'rtasida mavjud bo'lgan huquqiy (shaxsiy va mulkiy) munosabatlarni o'rnatadi.

Farzandlikka olish institutining ijtimoiy jihati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Oilaviy muhitni yaratish - farzandlikka olish orqali yetim va ota- onasini qaramog'isiz qolgan bolalarga oila muhitida tarbiyalanish imkoni yaratiladi. Bu ularning jamiyatda ijtimoiylashuvi va shaxsiy rivojlanishi uchun muhim hisoblanadi.

2. Yetimlik muammosini kamaytirish - bolalarni farzandlikka olish yetimlik muammosini hal qilishga yordam beradi, ularning kelajakda muvaffaqiyatli inson bo'lish ehtimolini oshiradi.

3. Insonparvarlik - bu jarayon insonparvarlik tamoyillariga asoslangan bo'lib, bolalarga mehr va e'tibor ko'rsatishga qaratiladi.

Farzandlikka olish institutining huquqiy jihati:

1. Me'yoriy-huquqiy baza - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, Fuqarolik protsessual kodeksi, bolalar huquqlarini himoya qiluvchi halqaro konvensiyalar va tegishli qonunlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida farzandlikka olish amalga oshiriladi.

2. Tekshiruv va nazorat. Farzandlikka olish jarayoni qat'iy tekshiruv va nazoratni talab qiladi. Bu birinchi navbatda, bolaning manfaatlarini muhofaza qilish va uni noqonuniy harakatlardan himoya qilish uchun amalga oshiriladi.

Tahlillardan kelib chiqib, farzandlikka olish institutining prinsiplari sifatida bola manfaatlarining ustivorligi, ochiqlik va shaffoflik, teng huquqlilikni ko'rsatish mumkin.

Bola manfaatlarining ustivorligi prinsipida - bolaning huquq va manfaatlari birinchi o'rinda turadi.

Ochiqlik va shaffoflik prinsipida - qonunchilikka muvofiq farzandlikka olish jarayoni shaffof va adolatli o'tishi kerak.

Teng huquqlilik prinsipida - farzandlikka olingan bola biologik farzandlar bilan teng huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi.

Statistik ma'lumotlar tahliliga ko'ra, O'zbekistonda 2019-2023 yillarda farzandlikka olish bilan bog'liq jami 23.201 ta ishlar sudlarda ko'rilgan bo'lib, shundan 22.214 tasi qanoatlantirilgan. Ya'ni, sud qaroriga asosan voyaga yetmagan bolalar 22.214 ta oilaga farzandlikka berilgan [6].

Bizning fikrimizcha, farzandlikka olish instituti nafaqat bolaning shaxsiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi va insonparvarlik prinsiplarini amalga oshirish vositasi ham hisoblanadi. Chunki, farzandlikka olish jarayonida bolaning manfaatlari har doim birinchi o'rinda bo'ladi. Bola uchun eng yaxshi muhitni ta'minlash, uning shaxsiy rivojlanishi, ta'lim olishi va salomatligini himoya qilish bola manfaatining ustuvorligi prinsipini bajarilishiga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, farzandlikka olish qonunchilik asosida qat'iy nazorat qilinadi. Bu jarayon bolaning huquqlari har qanday holatda ham buzilmasligi uchun huquqiy mexanizimlarni mukammal bo'lishini talab etadi.

Uchinchidan, farzandlikka olingan bolalar uchun yaratilgan muhitning ijobiy bo'lishi, ularning yangi oilaviy munosabatlarga moslashuvini osonlashtirish bo'yicha maxsus psixologik yordamning zarurligini ko'rsatadi, ya'ni bolaning yangi muhitga moslashishiga davlat va jamiyatning yordami talab etiladi.

To'rtinchidan, farzandlikka olish jarayonida shaffoflikni ta'minlash uchun davlat organlari tomonidan qat'iy nazorat olib borilishi talab etiladi. Bu esa noqonuniy farzandlikka olish yoki korrupsiya holatlarining oldini olish uchun xalqaro standartlarga mos choralarni ko'rish tavsiya qiladi.

Farzandlikka olish institutining mohiyati shundaki, farzand asrab oluvchi va farzandlikka olingan bola o'rtasidagi munosabatlar qonuniy jihatdan biologik ota-onalar va bola o'rtasidagi munosabatlarga tenglashtiriladi. Farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olingan bola o'rtasidagi munosabatlarni buzishi mumkin bo'lgan yagona holat bu farzandlikka olishni bekor qilinishidir. Aynan shu tamoyil farzandlikka olish institutini ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni joylashtirishning boshqa shakllaridan ajratib turadi.

Farzandlikka olish instituti bolalarni joylashtirishning boshqa shakllaridan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi:

- 1) huquqiy munosabatlarning paydo bo'lishi asosi bo'yicha;
- 2) huquqiy munosabatlarning mohiyati bo'yicha;
- 3) tomonlarning huquq va majburiyatlarining mazmuni bo'yicha.

Farzandlikka olish bilan bog'liq huquqiy munosabatlarning paydo bo'lishi uchun asos shaxsning xohish-irodasini ifodalash va qonuniy kuchga kirgan sud qaroridir. Vasiylik va asrab

oluvchi oilalarda huquqiy munosabatlarning paydo bo'lishi uchun asos kelishuvdir; vasiylik va homiylikni belgilashda esa hokim qarori hisoblanadi.

Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni joylashtirishning ushbu shakllari o'rtasidagi farqlar yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarning mohiyatida ham namoyon bo'ladi. Farzandlikka olish munosabatlari ularning noma'lum davomiyligi bilan tavsiflanadi, bolalarni joylashtirishning boshqa shakllari doirasida yuzaga keladigan barcha boshqa huquqiy munosabatlar esa muddatli xarakterga ega.

Farzandlikka olishni, shuningdek, o'xshash kelishuvlar taraflarining huquq va majburiyatlariga asoslanib, bolani joylashtirishning boshqa shakllaridan ajratish mumkin.

Vasiylar o'z vasiylikdagi shaxslarning qonuniy vakillari hisoblanadi. Ular bolaga g'amxo'rlik qilish, uni tarbiyalash va uning huquq va manfaatlarini himoya qilish majburiyatiga ega.

Bolalarni tutingan (foster) oilaga berish tutingan ota-onalar bilan tutingan bolalar o'rtasida aliment bilan bog'liq va oila to'g'risidagi qonunlarda nazarda tutilgan meros bilan bog'liq huquqiy munosabatlar kelib chiqishiga olib kelmaydi. Tutingan bola o'zining ismini, otasining ismini va familiyasini saqlab qoladi, ammo bu ismlar farzandlikka olishda o'zgartirilishi mumkin. Farzandlikka olishda munosabatlar umrbod o'rnatiladi; ular doimiy bo'lib, faqat farzandlikka olish bekor qilinganda tugatiladi.

Farzandlikka olishning asosiy ijtimoiy maqsadi ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning oilaviy muhitda yashashi va o'sishi uchun eng qulay sharoitlarni yaratishdan iborat.

Farzandlikka olish institutining ijtimoiy maqsadi voyaga yetmagan bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini to'liq hurmat qilish, shuningdek, farzandlikka oluvchi ota-onalarga onalik va otalik tuyg'ularini ro'yobga chiqarish imkonini berishdir. Farzandlikka olish institutining normalari nafaqat farzandsiz fuqarolar bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan, balki o'z farzandlari bo'lgan fuqarolar ham farzandlikka olishlari mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, qarindoshlik, bir shaxsning boshqasidan yoki umumiy ajdoddan kelib chiqishi sifatida, tan olinishi yoki tan olinmasligi mumkin, ammo u hech qanday tarzda qonun bilan yaratilmagan. Darhaqiqat, farzandlikka oluvchi ota-ona va farzandlikka olingan bola o'rtasidagi munosabatlar qonuniy jihatdan qarindoshlikka tengdir.

Biroq, farzandlikka olish nafaqat huquqiy oqibatlariga, balki barcha haqiqiy munosabatlarga ham olib keladi. Bu farzandlikka oluvchi ota-ona va farzandlikka olingan bola o'rtasida rivojlanadigan va huquqiy tartibga solinmaydigan munosabatlarga (o'zaro mehr, sevgi va boshqa shaxsiy munosabatlar) tegishli.

Farzandlikka olish institutini rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar zahirida bolalarning huquq va manfaatlari, qolaversa jamiyatning bo'g'ini bo'lgan oilalarning baxti-iqboli yotadi.

Farzandlikka olish bolaning shaxsiyatining foydali rivojlanishi uchun oilaga joylashtirishning eng mos shakli hisoblanadi. Farzandlikka olishning bu shakli bolaning tug'ilgan oilasida boshdan kechirilganiga eng o'xshash kundalik, ma'naviy va psixologik yaqinlikni rivojlantiradi. Buni qo'llab-quvvatlash uchun ushbu shaklning bir qator xususiyatlari ota-ona qaramg'isiz qolgan bolalarni joylashtirishning boshqa shakllariga nisbatan ustuvorligini namoyish etadi.

Birinchidan, farzandlikka oluvchi ota-ona va farzandlikka olinuvchi o'rtasidagi huquqiy munosabatlar bolani farzandlikka olishni istagan shaxsning yozma arizasi, shuningdek, ushbu arizaga asoslangan sudning yakuniy va majburiy qarori kabi ma'lum bir huquqiy tuzilmaning mavjudligiga asoslanadi.

Ikkinchidan, farzandlikka olingan bola va farzandlikka oluvchi ota-ona o'rtasidagi munosabatlar qat'iy ravishda doimiydir. Agar ma'lum huquqiy asoslar yuzaga kelsa, sudya farzandlikka olishni bekor qilishi mumkin.

Uchinchidan, ushbu huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari boshqa oilaviy tuzilish shakllariga qaraganda kengroq huquq va majburiyatlarga ega.

Farzandlikka olish (asrab olish) huquqiy institutining tamoyillari bizga uning huquqiy mohiyatini tushunishga yordam beradi.

Birinchi tamoyil - farzandlikka olish jarayonida bolaning manfaatlarini himoya qilish va ta'minlash tamoyili. Ushbu tamoyilning mohiyati shundaki, birinchi navbatda, har bir bola o'z manfaatlarini himoya qilish va ilgari surish huquqiga ega. Bundan tashqari, bu ham davlatning majburiyatidir. Ushbu bayonot Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya bilan tartibga solinadi. Farzandlikka olingan bolani tarbiyalashda farzandlikka oluvchi ota-onalar tegishli huquqiy va me'yoriy hujjatlarga amal qilishlari kerak:

Ikkinchi tamoyil - farzandlikka olishning maxfiyligini saqlash tamoyili. Bolani farzandlikka olgan shaxslar odatda ma'lumotlarni oshkor qilganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortiladilar. Bu tamoyil, istisnosiz, jarayonning barcha ishtirokchilari uchun majburiydir.

Uchinchi muhim tamoyil - bolalarni qon qarindoshlari tomonidan farzandlikka olish tamoyili. Bizning fikrimizcha, bolalarni qon qarindoshlari tomonidan farzandlikka olish bolaning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday oiladagi bola osonroq moslashadi. Farzandlikka olingan bola bilan qarindoshlik farzandlikka olingan bolaga katta mas'uliyat yuklaydi.

Farzandlikka olish tamoyili bilan bog'liq bo'lgan narsa abadiylik tamoyili hamdir. Farzandlikka olish bir kechada tugamaydi. Farzandlikka olish umrbod belgilangan muhim qadamdir. Ushbu tamoyildan yagona istisno - sud qarori bilan farzandlikka olishni bekor qilishdir.

Farzandlikka olish institutini huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyati shundaki, vasiylik va homiylik organlari farzandlikka olinishi mumkin bo'lgan bolalar va bolani farzandlikka olishni istagan shaxslar reestrini yuritadilar.

Bolani farzandlikka olgan oilalarning vazifalari, birinchi navbatda, bolani tarbiyalash, ularning huquqlarini himoya qilish, ta'lim berish va ularning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashishiga imkon beradigan barcha narsalardir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, farzandlikka olish institutida yetim bolalar - ota-ona va oilaga, farzandi yo'q oilalar - bolali bo'lishga erishadi. Bola oila bag'rida o'z farzandlari kabi katta bo'ladi, ularni familiyasida bo'ladi, o'zini begona xis qilishi mumkin bo'lgan barcha holatlar bartaraf etiladi. Ma'lum bir muddat kelganda bu xonadonni tark etishi mumkinligi haqidagi qo'rquv ularda bo'lmaydi. Ota-onalar esa o'zlarini tuqqan bolasiga beradigan barcha mehrni, e'tiborni farzandlikka olgan bolaga berishlari orqali bola sog'lom muhitda tarbiyalanishiga sharoit yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 30.04.2023. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son
2. 07.01.2008. "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. <https://www.lex.uz>
3. Мейер Д.И. Русское гражданское право. По исправленному и дополненному 8-му изд., 1902. М.: Статут (в серии «Классика российской цивилистики»). 1997. С. 375
4. Кобелев Д.А. Усыновление в системе форм устройства детей оставшихся без попечения родителей: вопросы теории // Современные социально-экономические процессы: проблемы, закономерности, перспективы. 2017. С. 139-141
5. Кухтова Н.В., Чайченко А.И. Взаимосвязь негармоничного воспитания родителей и личностных особенностей детей // Наука -образованию, производству, экономике. 2018. С. 13-15.
6. Bosh prokuraturaning Forma P xisobotlari. 2019-2023 yillar.
7. Esonova Z. "Farzandlikka olish moddiy va protsessual jihatlar". 2010.
8. "Правовое регулирование усыновление в России и зарубежом". Е.Коновалова.Томск-2020.
9. Отахо'jaev F. Yuldashev Sh. "Oila huquqi" 2009 y.
10. "Семейное право". Нечаева А.М. Курс лекций.- М: Юрист. 1998 С267-274.